



EKOLOGIK MAJBURIYATLAR REZERV VA EKOLOGIK XARAJATLAR TASNIFINI MAHSULOT TANNARXI HISOBIGA INTEGRATSIYALASH

Djumanov Saitmurod Alibekovich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

“Moliyaviy hisob va hisobot” kafedrası dotsenti

Annotatsiya. Tezida ishlab chiqaruvchi korxonalarda chiqindilarni utilizatsiya qilish, yer va suv resurslarini rekultivatsiya qilish, zararli moddalarni tozalash va atmosferaga chiqindilarni kamaytirish bilan bog‘liq ekologik majburiyatlarni mahsulot tannarxi hamda moliyaviy natijalarda aks ettirish muammosi o‘rganilgan. Amaliyotda ekologik sarflarning turli schyotlarda tarqoq qayd etilishi va kelgusi majburiyatlarning kech tan olinishi ekologik riskning real moliyaviy yukini baholashni qiyinlashtiradi. Tadqiqotda tizimli, qiyosiy va monografik tahlil, majburiyatni tan olish mezonlari hamda schyotlar korrespondensiyasi usullaridan foydalanilgan. Ilmiy yangilik sifatida 8920 – «Ekologik majburiyatlarni bajarish bo‘yicha rezerv» ishchi schyoti va ekologik xarajatlarni oldini oluvchi, joriy operatsion, qoplanadigan hamda jarima-kompensatsiya guruhlariga ajratish metodikasi yoritilgan. Taklif majburiyatni avtomatik rezervlashni emas, balki joriy majburiyat, resurs chiqimi ehtimoli va ishonchli baho mavjud bo‘lgandagina tan olishni nazarda tutadi. Metodika ekologik xarajatlarning tannarxga ta‘sirini aniqlash, noto‘g‘ri kapitalizatsiyani cheklash va audit dalillarini tizimlashtirishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: ekologik majburiyat, rezerv, mahsulot tannarxi, ekologik xarajat, BHXS 37, ishchi schyot, rekultivatsiya, chiqindi, audit, barqaror rivojlanish.

Kirish

Ishlab chiqarish faoliyati ekologik zararlarning oldini olish, chiqindilarni boshqarish va buzilgan resurslarni tiklash bo‘yicha xarajatlarni yuzaga keltiradi. Mazkur xarajatlarning bir qismi joriy davrda bajariladi, boshqa qismi esa qonun, shartnoma yoki korxonaning shakllangan amaliyoti natijasida kelgusida bajarilishi lozim bo‘lgan majburiyatga aylanadi. Ularni faqat to‘lov amalga oshirilganda tan olish xarajat va majburiyatlarni davrlar bo‘yicha noto‘g‘ri aks ettirishi, foyda va tannarx ko‘rsatkichlarini buzishi mumkin.

Muammo ekologik faoliyat bilan bog‘liq har qanday kelgusi sarfni rezerv deb tan olish mumkin emasligida ham namoyon bo‘ladi. BHXS 37ga muvofiq rezerv o‘tgan hodisadan kelib chiqqan joriy majburiyat, resurslar chiqib ketishining ehtimolligi va ishonchli baholash mavjud bo‘lgandagina tan olinadi [1]. Tезisning maqsadi ekologik majburiyatlarni tan olish mezonlari, 8920-ishchi schyot va ekologik xarajatlar tasnifini yagona metodik zanjirga birlashtirishdan iborat.

Adabiyotlar sharhi

Moliyaviy hisobot standartlarida ekologik majburiyatlar alohida bitta standart bilan emas, majburiyat, aktiv tannarxi, qiymatning pasayishi va axborotni ochib berish tamoyillari orqali tartibga solinadi[1–3]. Xarajatlar hisobi adabiyotida ekologik

sarflarni mahsulot, jarayon va javobgarlik markazlari bilan bog'lash boshqaruv qarorlarining axborot bazasini kengaytiradi[4–5]. Audit standartlari esa baholash noaniqligi va rahbariyat mulohazalaridan kelib chiqadigan muhim buzib ko'rsatish risklarini aniqlashni talab qiladi[6–7]. Avtoreferatda ekologik majburiyatlarning umumiy xarajatlarda ko'rinmay qolishi, ekologik sarflarning iqtisodiy mazmuniga ko'ra ajratilmasligi va ular ustidan alohida audit izi mavjud emasligi ilmiy-amaliy muammo sifatida belgilangan[8]. Tadqiqotning farqli jihati rezerv schyotini xarajatlar tasnifi va tan olish testlari bilan bog'lashidir.

Ekologik xarajat tushunchasi keng bo'lib, u majburiyatni bajarish uchun sarflanadigan summa bilangina cheklanmaydi. Oldini oluvchi investitsiyalar, kundalik chiqindi boshqaruvi, ekologik monitoring, tiklash ishlari, sug'urta orqali qoplanadigan zarar va qoidabuzarlik jarimalari iqtisodiy mazmuni jihatidan farqlanadi. Ularni bitta xarajat moddasida jamlash ishlab chiqarish tannarxi, ekologik samaradorlik va compliance xarajatlarini aralashtirib yuboradi. Shu sababli tasniflash rezervni tan olishdan oldingi zarur metodik bosqich sifatida qaraladi.

BHXS 37 rezervni majburiyatning muddati yoki summasi noaniq bo'lgan majburiyat sifatida talqin qiladi[1]. Mazkur qoida ekologik rezervlar uchun ayniqsa muhim, chunki rekultivatsiya hajmi, texnologiya narxi, inflyatsiya va bajarilish muddati taxminlarga bog'liq. Shunga qaramay, noaniqlik rezervni tan olmaslik uchun avtomatik asos emas. Agar majburiyat mavjud va resurs chiqimi ehtimolli bo'lsa, eng yaxshi baho shakllantiriladi; ishonchli baholash mutlaqo imkonsiz holatlar esa juda kam uchrashi kerak.

Ekologik hisob bo'yicha ilmiy yondashuvlar ko'pincha barqarorlik hisobotlari va ekologik ko'rsatkichlarni ochib berishga qaratilgan. Mazkur tezis esa moliyaviy majburiyatni tan olish, mahsulot tannarxiga tegishlilik va audit dalilini shakllantirishni markazga qo'yadi. Shunday qilib, taklif ekologik axborotni deklarativ ko'rsatkichdan aniq schyot, kalkulyatsiya obyekti va nazorat protsedurasiga aylantirishga qaratilgan.

Tadqiqot metodologiyasi

Axborot bazasi sifatida avtoreferatdagi «G'alla Alteg» AJ amaliyoti, BHXS 37, BHXS 2 va tegishli audit standartlari olindi. Tizimli yondashuv ekologik hodisadan majburiyat, rezerv, bajarilish va hisobotgacha bo'lgan jarayonni modellashtirishda; qiyosiy tahlil joriy va taklif etilayotgan hisobni solishtirishda; hujjatli tahlil ekologik majburiyatning huquqiy yoki konstruktiv manbasini aniqlashda; ehtimollik va eng yaxshi baho tamoyillari rezerv miqdorini asoslashda qo'llanildi.

Metodika ikki bosqichli testga asoslanadi. Birinchi bosqichda majburiyatning tan olish shartlari tekshiriladi. Ikkinchi bosqichda tan olingan xarajatning mahsulot tannarxi, davr xarajati, aktiv tannarxi yoki jarima-kompensatsiya xarajati sifatidagi iqtisodiy joyi belgilanadi. Bu ajratish ekologik xarajatlarning barchasini mahsulot tannarxiga yuklash xavfini kamaytiradi.

Majburiyat mavjudligini baholashda huquqiy va konstruktiv majburiyat farqlanadi. Huquqiy majburiyat qonun, ruxsatnoma yoki shartnomadan kelib chiqadi. Konstruktiv majburiyat esa korxonaning e'lon qilingan siyosati yoki shakllangan amaliyoti uchinchi tomonlarda majburiyat bajarilishiga asosli kutish hosil qilganda yuzaga keladi. Faqat rahbariyatning ichki rejasi yoki kelgusi ekologik xarajatlar budjeti uchinchi tomon oldida joriy majburiyat yaratmasa, rezerv tan olinmaydi.

Baholashda yagona ehtimoliy natija mavjud bo'lsa, eng ehtimolli summa boshlang'ich nuqta bo'lishi mumkin; ko'p sonli o'xshash majburiyatlarda ehtimollar bilan og'irlashtirilgan kutiladigan qiymat yondashuvi maqsadga muvofiq. Diskont stavkasi pulning vaqt qiymati va majburiyatga xos bo'lmagan risklarni aks ettiradi; kelajak pul oqimlariga kiritilgan riskni stavkada takror hisobga olishga yo'l qo'yilmaydi. Mazkur hisob-kitoblar mutaxassis xulosasi bilan hujjatlashtiriladi.

Tadqiqot natijalarini baholash uchun rezervlarning qoplanish darajasi, ekologik xarajatlarning mahsulot tannarxidagi ulushi, baholarni qayta ko'rib chiqish chastotasi, reja va haqiqiy bajarilish tafovuti hamda muddati o'tgan ekologik majburiyatlar kabi indikatorlar tavsiya etiladi. Ushbu ko'rsatkichlar korxona ichki ma'lumotlari bilan to'ldirilganda metodikaning moliyaviy natija va risk boshqaruviga ta'sirini miqdoriy tahlil qilish mumkin.

Natijalar

Ilmiy yangilik. Ekologik majburiyatlarni 8920 – «Ekologik majburiyatlarni bajarish bo'yicha rezerv» ishchi schyotida alohida hisobga olish va ekologik xarajatlarni to'rtta analitik guruhga ajratish taklif etiladi: oldini oluvchi; joriy operatsion; qoplanadigan; jarima-kompensatsiya xarajatlari. Avtoreferatda mazkur taklifning «G'alla Alteg» AJ faoliyatiga joriy etilgani va ekologik risklar hamda moliyaviy yuklamalarni mustaqil analitik yo'nalishda yoritish imkoniyati yaratilgani ko'rsatilgan[8].

Rezerv shakllantirilganda qarshi schyot majburiyatning kelib chiqishiga bog'liq. Joriy ishlab chiqarish natijasidagi va zaxirani hozirgi holatiga keltirish bilan bog'liq sarf tegishli bo'lsa Debet 2010 yoki 2510 – Kredit 8920; umumiy boshqaruvga tegishli majburiyatda Debet 9430 – Kredit 8920 qo'llanishi mumkin. Rezerv bajarilganda Debet 8920 – Kredit 6010 yoki 5110 yozuvi amalga oshiriladi. Agar ekologik majburiyat asosiy vositani qurish yoki foydalanishga tayyorlash bilan bevosita bog'liq bo'lsa, tegishli aktiv standartlari bo'yicha dastlabki qiymatga kiritish masalasi alohida baholanadi [2].

Rezerv miqdori hisobot sanasida majburiyatni bajarish uchun talab qilinadigan xarajatlarning eng yaxshi bahosini ifodalaydi. Muhim vaqt qiymati mavjud bo'lsa diskontlash qo'llanadi; taxminlar texnik xizmat, ekolog, yurist va buxgalter ma'lumotlari bilan asoslanadi. Har bir hisobot sanasida majburiyat mavjudligi, ehtimollik, muddat, xarajat smetasi va diskont stavkasi qayta ko'rib chiqiladi. Majburiyat ehtimoli yetarli bo'lmasa, rezerv emas, shartli majburiyatni ochib berish masalasi ko'riladi.

Joriy etish ekologik majburiyatlar inventarizatsiyasidan boshlanadi. Har bir ishlab chiqarish maydoni bo'yicha ruxsatnoma, shartnoma, sud talabi, ekologik tekshiruv xulosasi va korxonaning ommaviy majburiyatlari o'rganiladi. Keyin o'tgan hodisa va joriy majburiyat aniqlanadi, resurs chiqimi ehtimoli baholanadi, texnik hajm hamda pul oqimlari hisoblanadi. Tasdiqlangan summa 8920 analitikasida majburiyat turi, obyekt, bajarilish muddati va mas'ul markaz kesimida qayd etiladi.

Nazorat bosqichi	Mas'ul bo'linma	Asosiy hujjat	Kutiladigan natija
Majburiyatni aniqlash	Yuridik va ekologiya xizmati	Qonun, ruxsatnoma, shartnoma	Joriy majburiyat manbai

Texnik baholash	Muhandis va ekolog	Ish hajmi, texnologik smeta	Bajarish uchun resurs hajmi
Moliyaviy baholash	Buxgalteriya va moliya	Pul oqimi, inflyatsiya, diskont	Rezervning eng yaxshi bahosi
Tasdiqlash	Komissiya yoki rahbariyat	Bayonnoma va hisob-kitob	8920da tan olish uchun asos
Qayta ko'rib chiqish	Ichki audit va mas'ul xizmatlar	Reja-fakt va keyingi hodisalar	Rezervni tuzatish yoki bekor qilish

8920 schyoti uchun analitik registrda boshlang'ich baho, davrda qo'shilgan summa, diskontning ochilishi, foydalanilgan rezerv, bekor qilingan qism va yakuniy qoldiq alohida ko'rsatiladi. Bu harakatlar moliyaviy hisobotda rezervlarning turlari bo'yicha yarashuvini tuzish imkonini beradi. Qoplash kutilayotgan summa faqat uning olinishi deyarli aniq bo'lganda alohida aktiv sifatida tan olinadi; rezerv va qoplash summasi balansda asossiz netto qilinmaydi.

Ichki audit rezervning mavjudligi bilan birga uning to'liqligini ham tekshiradi. Korxona ayrim majburiyatlarni hisobga olgan bo'lsa-da, boshqa maydon yoki texnologik jarayon bo'yicha o'xshash majburiyatni tashlab ketishi mumkin. Shu bois ekologik ruxsatnomalar reyestri, sud ishlari, nazorat organlari yozishmalari, kapital loyihalar va chiqindi hajmlari rezerv registri bilan kesishma tahlil qilinadi. Kutilmagan tafovutlar qo'shimcha auditorlik protsedurasiga sabab bo'ladi.

Ekologik xarajatlarni mahsulotlarga taqsimlashda fizik drayverlar ustuvor bo'lishi mumkin: chiqindi massasi, emissiya hajmi, suv sarfi, qayta ishlash partiyasi yoki uskunaning ishlash soati. Biroq jarima va qonunbuzarlik kompensatsiyasini mahsulot tannarxiga taqsimlash boshqaruvning samarasizligini mahsulot qiymatiga yashirishga olib keladi. Shu sababli jarima-kompensatsiya xarajatlari alohida davr xarajati va compliance indikatori sifatida ko'rsatiladi.

Muhokama

8920-ishchi schyot ekologik majburiyatlar haqidagi axborotni jamlaydi, lekin u BHXS 37 mezonlarini almashtirmaydi. Kelgusida ekologik loyiha o'tkazish niyati yoki rahbariyat budjeti joriy majburiyatni o'z-o'zidan yuzaga keltirmaydi. Shuningdek, kelgusi operatsion zararlar uchun rezerv tan olinmaydi. Metodikaning xalqaro standartlarga mosligi aynan majburiyat manbai, ehtimollik va ishonchli baho testlari bilan ta'minlanadi.

Ekologik xarajatlar tasnifi boshqaruv tahlilini kuchaytiradi: oldini oluvchi sarflar bilan keyingi tozalash xarajatlari, mahsulot tannarxiga bog'liq operatsion xarajatlar bilan qoidabuzarlik jarimalari ajratiladi. Bu ajratish ekologik samaradorlikni tannarxni sun'iy oshirmasdan baholash imkonini beradi. Biroq noaniqlik yuqori bo'lgani sababli rahbariyat bahosiga ortiqcha tayanish, optimistik muddat yoki pasaytirilgan smeta risklari mavjud. Auditda huquqiy xulosa, texnik o'lchov, avvalgi xarajatlar, mustaqil ekspert ma'lumoti va keyingi hodisalar o'zaro solishtirilishi kerak[6–7].

Metodikaning cheklovi ekologik majburiyatlar bo'yicha tarixiy ma'lumotlar va mustaqil bozor baholari yetarli bo'lmasligi bilan bog'liq. Texnologiya tez o'zgarganda bugungi smeta uzoq muddatli majburiyat qiymatini to'liq ifodalamasligi mumkin. Bunday holatda ssenariylar, sezgirlik tahlili va ekspert diapazonidan foydalanish

maqsadga muvofiq. Hisobotda baholash usuli, asosiy taxminlar, noaniqlik va kutilayotgan muddat ochib berilishi foydalanuvchiga raqamning tabiatini tushunish imkonini beradi.

Ilmiy taklifning boshqaruv qiymati rezerv summasini qayd etish bilangina cheklanmaydi. Analitik tasnif rahbariyatga oldini olish xarajatlari bilan oqibatlarni bartaraf etish xarajatlarini qiyoslash, ekologik investitsiyalar ustuvorligini belgilash va majburiyatlarni bajarish jadvalini pul oqimlari rejasiga kiritish imkonini beradi. Shu tariqa ekologik hisob retrospektiv qayddan istiqbolli risk boshqaruvi vositasiga aylanadi.

Xulosa

Ekologik majburiyatlarni to'lov paytida tan olish xarajat va majburiyatlarni davrlar bo'yicha buzib ko'rsatishi mumkin.

8920-ishchi schyot ekologik rezervlarni mustaqil analitik obyekt sifatida yuritish uchun taklif etildi; schyot kodi korxona ishchi rejasiga moslashtiriladi. Rezerv faqat o'tgan hodisadan kelib chiqqan joriy majburiyat, ehtimolli resurs chiqimi va ishonchli baho mavjud bo'lganda tan olinishi shart. Ekologik xarajatlarni oldini oluvchi, joriy operatsion, qoplanadigan va jarima-kompensatsiya guruhlariga ajratish tannarx hamda davr xarajatlari chegarasini aniqlashtiradi. Rezerv miqdori eng yaxshi baho asosida aniqlanib, muhim vaqt qiymatida diskontlanishi va har hisobot sanasida qayta ko'rib chiqilishi lozim.

Auditda majburiyatning huquqiy manbai, texnik smeta, ehtimollik va bajarilish muddati mustaqil dalillar bilan tekshirilishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. IASB. IAS 37 Provisions, Contingent Liabilities and Contingent Assets.
2. IASB. IAS 16 Property, Plant and Equipment.
3. IASB. IAS 2 Inventories.
4. Drury C. Management and Cost Accounting, 10th Edition Colin Drury. Annabel Ainscow. ISBN: 978-1-4737-4887-3. 2017.
5. Horngren C.T., Datar S.M., Rajan M.V. **Cost Accounting: A Managerial Emphasis**. – 15th ed. – Harlow: Pearson, 2015. – 868 p.
6. IAASB. ISA 315 (Revised 2019): Identifying and Assessing the Risks of Material Misstatement.
7. IAASB. ISA 540 (Revised): Auditing Accounting Estimates and Related Disclosures.
8. Djumanov S.A. Don mahsulotlari ishlab chiqaruvchi korxonalarda mahsulot tannarxiga ta'sir etuvchi omillar // Moliya, pul va kredit. 2025. №2. 93–98-b.
9. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 5-fevraldagi 54-son qarori bilan tasdiqlangan xarajatlar tarkibi to'g'risidagi nizom.